




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

**BUXORO SHEVALARIDA UCHROVCHI MORFONOLOGIK O'ZGARISHLAR VA
ULARNING TAHLILI, SO'Z ASOSIDA YUZ BERADIGAN O'ZGARISHLAR**

**MORPHONOLOGICAL CHANGES IN BUKHARA DIALECTS AND THEIR
ANALYSIS, WORD-BASED CHANGES**

Dilnavoz ASATULLAYEVA,

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZE VW7641

Annotation. *This article analyzes morphonological changes occurring in the Oghuz dialects of the Bukhara region. Particular attention is paid to phenomena such as assimilation, dissimilation, and sound alternation that arise from the interaction between phonetic and morphological levels. The study is based on oral speech materials. The role of these changes in the language system and their teaching potential are also discussed.*

Key words: *morphonology, Oghuz dialects, Bukhara dialect, sound changes, oral speech, assimilation.*

Hozirgi zamon tilshunosligida morfonologiya til tizimining muhim bo'g'inlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Morfonologiya fonetika va morfologiya o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rganib, so'z shakllarining o'zgarishida yuz beradigan tovush hodisalarini tahlil qiladi. Ayniqsa, shevalarda bu jarayon yanada jonli va tabiiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

O'zbek tilining hududiy shevalari, xususan, Buxoro vohasida tarqalgan o'g'uz shevalari morfonologik jihatdan nihoyatda boy material beradi. Ushbu shevalarda so'z tarkibidagi tovushlarning almashinuvi, tushib qolishi yoki orttirilishi kabi hodisalar keng uchraydi. Bu esa morfonologik o'zgarishlarni tizimli ravishda o'rganishni taqozo etadi.

Buxoro o'g'uz shevalarida kuzatiladigan morfonologik hodisalar nafaqat fonetik o'zgarish sifatida, balki grammatik shakllanish jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim hollarda undoshlarning yumshashi, almashinuvi yoki unlilarning o'zgarishi morfemalarning shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Buxoro o'g'uz shevalarida yuz beradigan morfonologik o'zgarishlarni og'zaki nutq materiallari asosida tahlil qilish, ularning asosiy turlarini aniqlash va ilmiy jihatdan tavsiflashdan iborat.

Shevalarimizda undosh fonemalar ikki pog'onali qo'llaniladi. Unlilar undoshlarga ta'sir qilishi natijasida undoshlar talaffuzi ham o'zgaradi [Ashirboyev 2021: 34].

Undosh tovushlarning almashinuvi (konsonant alternatsiya). Mazkur hodisa shevada eng faol jarayonlardan biri bo'lib, ayniqsa, so'z oxirida yoki morfema chegarasida kuzatiladi: inakni → inājni, buni → muni, qaynonaga → objiji (leksik almashuv bilan birga fonetik o'zgarish). Bu yerda k → y almashinuvi kuzatiladi. Ushbu o'zgarish artikulyatsion jihatdan yumshash jarayoni bilan izohlanadi. Ya'ni, portlovchi undosh (k) sirg'aluvchi undoshga (j) o'tadi.

Unli tovushlarning almashinuvi (vokal alternatsiya). Unli tovushlar o'zgarishi ko'pincha urg'u, fonetik muhit yoki shevaga xos talaffuz bilan bog'liq bo'ladi: duo → duvā, ijara → ijārā.

Bu o'zgarishlarda o/a unlilarining o'zaro almashuvi kuzatiladi. Bu jarayon ko'pincha shevaning fonetik tizimidagi uyg'unlashuv bilan bog'liq.

Assimilatsiya (tovushlarning moslashuvi). Assimilatsiya – yonma-yon kelgan tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zgarishidir: semichka → šmičkā, shprints → špiris.

Bu yerda tovushlar qisqarib, talaffuz qulaylashadi. Ayniqsa, undoshlar bir-biriga yaqinlashib, talaffuz iqtisodiyliги yuzaga keladi.

Buxoro o'g'uz shevalarida undosh tovushlarning o'zgarishi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shulardan biri sifatida masjid → mejid shaklini ko'rsatish mumkin.

Unlining o'zgarishi (a → e): So'z boshidagi a unlisi e ga almashgan. Bu hodisa shevaga xos vokal o'zgarish bo'lib, talaffuzning yumshashiga xizmat qiladi.

2. Undosh birikmasining soddalashuvi (sj → j):

Masjid so'zidagi murakkab sj undoshlar birikmasi soddalashib, j tovushiga aylangan. Bu jarayon artikulyatsion qulaylik bilan izohlanadi.

3. Assimilatsiya elementi:

Yonma-yon kelgan undoshlar bir-biriga moslashib, talaffuzda ixcham shakl hosil qilgan.

Bu kabi o'zgarishlar morfonologiyaaning muhim qonuniyatlaridan biri — talaffuz iqtisodiyligi tamoyili bilan bog'liq. Ya'ni, nutqda ortiqcha artikulyatsion harakatlarni kamaytirish natijasida tovushlar soddalashadi.

Shuningdek, masjid → mejid shakli shevalarda fonetik va morfologik darajalarning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Chunki o'zgarish nafaqat tovush tarkibiga, balki so'zning umumiy strukturaviy ko'rinishiga ham ta'sir qiladi.

O'zbek tilining tarixiy yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklarni Buxoro o'g'uz shevalarida qo'llanayotgan so'zlar bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ayrim so'zlar semantik jihatdan sezilarli darajada o'zgarib, mutlaqo yangi ma'no kasb etgan. Bunday holatlar til taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, ular alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi.

O'g'uz guruhiga mansub shevalar o'zaro muayyan umumiyliklarga ega bo'lsa-da, Buxoro hududida tarqalgan o'g'uz shevalari o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa dialektlardan ajralib turadi. Shu bois mazkur shevalar, xususan, Buxoro turkman shevalari haqida yakuniy ilmiy xulosalarga kelishda ehtiyotkorlik zarur. Chunki ushbu hududda yashovchi mahalliy turkman aholisining turmush tarzi, xo'jalik faoliyati hamda ijtimoiy-madaniy sharoitlari ko'p jihatdan buxorolik o'g'uzlar bilan mushtarakdir. Bu esa til birliklarining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilining boshqa shevalarida kuzatilganidek, Buxoro o'g'uz shevalarida ham turli tillardan o'zlashgan ko'plab baynalmilal leksik birliklar mavjud. Biroq ushbu o'zlashma so'zlar sheva vakillari tomonidan asl shaklida emas, balki mahalliy fonetik-me'yorlarga moslashtirilgan holda talaffuz qilinadi. Natijada ular muayyan morfonologik o'zgarishlarga uchraydi va shevaning fonetik tizimiga uyg'unlashadi.

Buxoro o'g'uz shevalarining muhim xususiyatlaridan biri — undosh tovushlar geminatsiyasining faol qo'llanishidir. Masalan, saqich → sāqqiç shaklida kuzatiladigan o'zgarishda unli tovushning almashinuvi bilan bir qatorda undoshning ikkilanishi (geminatsiyasi) ham yuz beradi. Bu esa kombinatsiyalashgan morfonologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, qattiq → qātti, echki → gečči kabi misollarda ham undoshlarning geminatsiyasi shevaga xos barqaror hodisa sifatida kuzatiladi.

Shuningdek, mazkur shevada jarangsiz undoshlarning jaranglilashuvi, ya'ni voicing hodisasi ham keng tarqalgan. Xususan, t undoshi ko'pincha d ga almashadi: tuz → duz, tosh → dāš, tuya → dujā, tush → duš, tirnoq → dirnāq, tur → dur, tish → diš, tizza → diz, tirsak → dirsāk kabi. Bu holat so'z boshida yoki o'rtasida kelgan jarangsiz undoshning jarangli variantga o'tishi bilan izohlanadi va sheva tizimida nisbatan barqaror fonetik qonuniyat sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ayrim leksik birliklarda bunday o'zgarish kuzatilmaslgi ham ushbu jarayonning mutlaq emasligini ko'rsatadi.

Keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'zning asosiy leksik ma'nosi o'zgarmagan holda, uning fonetik qiyofasida muayyan modifikatsiyalar yuz beradi. Xususan, boshlang'ich undoshning artikulyatsion xususiyatlari o'zgaradi, biroq bu jarayon fonologik farqlanishni yuzaga

keltirmaydi. Ya’ni, yangi leksik birlik hosil bo‘lmaydi, aksincha mavjud birlikning shevaga xos fonetik varianti shakllanadi.

Ma’lumki, k undoshi til orqa, portlovchi va jarangsiz tovush bo‘lib, uni talaffuz qilishda nisbatan kuchli artikulyatsion zo‘riqish talab etiladi. O‘g‘uz shevalarida esa nutqning dinamikligi hamda talaffuzni soddalashtirishga intilish natijasida ushbu undosh ko‘pincha jarangli g tovushiga almashadi. Mazkur almashinuv ayniqsa unlilar orasida yoki so‘z boshida kelgan holatlarda faolroq kuzatiladi.

Ushbu hodisa morfonologik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ayrim hollarda so‘zning morfemik tarkibida mustahkamlanib, grammatik shakllar doirasida muntazam takrorlanadi. O‘g‘uz guruhiga kiruvchi tillar va shevalar — jumladan, turk, ozarbayjon hamda janubiy o‘zbek shevalari — tarixiy taraqqiyot davomida jarangli undoshlarga moyilligi bilan ajralib turadi. Shu sababli k → g almashinuvi umumturkiy tizimdan chetlanish emas, balki o‘g‘uz lahjasining ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bog‘liq tabiiy fonetik jarayon sifatida baholanadi.

Mazkur hodisa adabiy o‘zbek tilida me’yoriy hisoblanmasa-da, dialektologik tadqiqotlar uchun muhim empirik material vazifasini bajaradi. U shevalarni fonetik jihatdan tasniflashda asosiy mezonlardan biri sifatida ham xizmat qiladi. Umuman olganda, o‘g‘uz shevalarida k undoshining g ga o‘zgarishi jaranglashish (voicing) hodisasining yorqin ko‘rinishi bo‘lib, nutq iqtisodiyligi, artikulyatsion qulaylik hamda tarixiy-lahjaviy omillar ta’sirida shakllangan. Bu o‘zgarish semantik jihatdan neytral bo‘lib, faqat talaffuz variantini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham uni morfonologik jihatdan o‘rganish o‘g‘uz shevalarining fonetik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O‘g‘uz lahjasiga mansub shevalarda o‘zlashgan leksik birliklar ham mahalliy fonetik tizim ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu jarayon tilning ichki qonuniyatlari asosida amalga oshib, o‘zlashma so‘zlarning o‘g‘uz shevalariga xos artikulyatsion va prosodik xususiyatlarga moslashuvi bilan izohlanadi. Natijada manba til shaklidan farqlanuvchi, ammo leksik ma’nosi saqlanib qolgan dialektal variantlar yuzaga keladi.

Xususan, o‘zlashgan so‘zlarda unli tovushlarning moslashuvi va reduksiyasi keng tarqalgan hodisalardan biridir. O‘g‘uz shevalarida urg‘usiz bo‘g‘inlar zaiflashib, undagi unlilar sifat jihatdan o‘zgaradi yoki qisqaradi. Ayniqsa, rus tiliga xos o va e unlilari ko‘pincha a, i yoki u tovushlariga yaqinlashadi. Masalan, xolodelnik → xälädilnik, tsepochka → sepičkä, document → däkumit kabi shakllarda urg‘usiz bo‘g‘inlardagi unli tovushlarning transformatsiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat o‘g‘uz shevalariga xos reduksiya va fonetik moslashuv jarayonining ifodasidir.

Buxoro o‘g‘uz shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlar til tizimining dinamik va moslashuvchan ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu hodisalar:

- tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi;
- og‘zaki nutqning tabiiyligini ta’minlaydi;
- morfemalarning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi;
- shevalararo farqlarni aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bu o‘zgarishlar umumadabiy til bilan sheva o‘rtasidagi tafovutlarni ochib berishda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2021
2. Abdurahmonov G‘. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1962.
4. Mirzayev M. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Universitet, 2008.
5. Yuldashev B. O‘zbek tilida morfonologiya masalalari. – Toshkent, 2015.